

2019 yil yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **7975,9 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **113,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **5098,2 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **112,6 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **63,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **75,4 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7975,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 113,6 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi 114,9 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 99,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 98,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

2018-yil
yanvar-noyabr



2019-yil
yanvar-noyabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7537,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,5 % ni tashkil etdi.


**2019 yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish.**

	2019 yil	2018 yil	2018 yilga nisbatan, %
Paxta linti, ming tonna	1,9	3,3	57,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	398,8	948,0	42,1
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	29,2	74,4	39,2
Vino, ming litr	1135,0	1338,0	84,8
Un, ming tonna	103,9	403,4	25,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	11,8	10,3	114,6

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi.

Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
Ishlab chiqaradigan sanoat	7537,1	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1568,0	20,8
Ichimliklar ishlab chiqarish	344,1	4,6
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2593,4	34,4
Kiyim ishlab chiqarish	1015,5	13,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	193,7	2,6
Yog`och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	27,4	0,4
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	62,3	0,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,7	0,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	9,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	109,4	1,5
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	243,6	3,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	109,7	1,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	351,3	4,7
Metallurgiya sanoati	54,6	0,7
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	241,8	3,2
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	3,3	0,0
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	256,7	3,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	54,6	0,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	8,0	0,1
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,8	0,0
Mebel ishlab chiqarish	122,7	1,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	155,2	2,1
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	9,2	0,1

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ning ulushi -3,3 % ni (2018 yil yanvar-noyabr oylarida -3,4 %) , o'rta-yuqori texnologiyali-5,7 % (6,0 %) , o'rta-quyi texnologiyali-10,3 % (11,5 %) va quyi texnologiyali-80,7 % (79,1 %) ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 321,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 5098,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 112,6 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 63,9 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari.



2018 yilning yanvar-noyabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 30,1 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-noyabr oyida 33,0 % ga yetgan.

**Yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,
% da.**



2018 yilning yanvar-noyabr oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 69,9 % bo'lib, 2019 yilning yanvar-noyabr oyida 67,0 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati.**

	Mrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar- noyabrga nisbatan o'sish, % da
Viloyat jami	5098,2	100,0	112,6
Namangan shahar	2421,9	47,5	113,1
Mingbuloq	42,9	0,8	104,4
Kosonsoy	214,5	4,2	113,8
Namangan t	539,1	10,6	109,9
Norin	103,7	2,0	114,3
Pop	123,6	2,4	102,6
To'raqo'rg'on	427,1	8,4	113,2
Uychi	335,6	6,6	111,1
Uchqo'rg'on	455,2	8,9	110,3
Chortoq	99,4	2,0	112,6
Chust	258,2	5,1	127,9
Yangiqo'rg'on	77,0	1,5	106,3


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2327,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 29,2 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, % da.


2018 yil yanvar-noyabr



2019 yil yanvar-noyabr




 Viloyatning boshqa korxonalari

 Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da.




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-noyabr, mlrd.so'm	2018 yil yanvar-noyabrga nisbatan, %
Viloyat jami	7975,9	113,6
Namangan shahar	3410,5	109,3
Mingbuloq	119,2	94,6
Kosonsoy	313,2	109,3
Namangan t	804,4	109,8
Norin	140,5	99,1
Pop	318,6	115,6
To'raqo'rg'on	713,4	129,4
Uychi	474,2	104,5
Uchqo'rg'on	1190,9	132,2
Chortoq	106,1	105,6
Chust	263,3	106,7
Yangiqo'rg'on	121,6	110,4

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,8 % ulushini), Uchqo'rg'on (14,9 %), Namangan (10,1 %), To'raqo'rg'on (8,9 %), Uychi tumani (5,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,3 %), Yangiqo'rg'on (1,5 %), Mingbuloq (1,5 %), Norin (1,9 %) va Chust (3,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha sanoat va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da.



Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 47,5 %), Namangan (10,6 %), Uchqo'rg'on (8,9 %) hamda To'raqo'rg'on (8,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida To'raqo'rg'on, Pop va Uchqo'rg'on tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Uchqo'rg'on (7030,0 ming so'm), Namangan shahrida (5524,0 ming so'm), Namangan tumanida (4567,9 ming so'm), va To'ra qo'rg'on (3207,5 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2875,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 1837,7 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 3922,8 ming so'mni, Namangan tumanida 3061,3 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 2687,4 ming so'mni, To'ra qo'rg'on tumanida 1920,5 ming so'mni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat
ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari.**


	Sanoat ishlab chiqarish (ming so'mda)	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (ming so'mda)
Viloyat jami	2875,0	1837,7
Namangan shahar	5524,0	3922,8
Mingbuloq	960,8	345,3
Kosonsoy	1523,1	1043,2
Namangan t	4567,9	3061,3
Norin	870,5	642,7
Pop	1471,6	570,9
To'ra qo'rg'on	3207,5	1920,5
Uychi	2264,8	1602,6
Uchqo'rg'on	7030,0	2687,4
Chortoq	541,7	507,1
Chust	1006,7	987,6
Yangiqo'rg'on	567,1	359,1

2019-yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol tovarlarining o'sishi, 2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan % da.

Sanoat ishlab chiqarish



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 6013,3 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 75,4 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (90,3 %), Uychi (92,2 %) va Namangan (87,7%) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (36,0 %), Pop (51,6 %) va Chust (61,0 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da.



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5432 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2332 tasi Namangan shahrida, 399 tasi Chust, 390 tasi Uychi, 384 tasi Namangan, 350 tasi Kosonsoy, 343 tasi To'raqo'rg'on, 247 tasi Uchqo'rg'on, 230 tasi Norin, 217 tasi Chortoq, 215 tasi Yangiqo'rg'on, 209 tasi Pop va 116 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

**2019 yil 1dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



2019 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 1370 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 55,3 % Namangan shahri, Kosonsoy, Uchqo'rg'on va Uychi tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 dekabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(71) 230-84-80